IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

NORATSIONAL OQSIL YUKLAMALI OVQATLANISHDA YUZAGA KELGAN JIGAR GIPERTROFIYASINING GISTOLOGIK O'ZGARISHLARI

B.T.Sharobidinov

Andijon davlat tibbiyot instituti

Tibbiy biologiya va gistologiya kafedrasi assistenti

Dolzarbligi: Kunlik oziq-ovqatlar tarkibidagi oqsillar organizmdagi organik moddalar ichida miqdor va ahamiyati jihatidan birinchi o'rinni egallaydi. Oqsillar organizmda bir qancha muhim plastik, boshqaruv va signal, katalitik, harakatlanish, transport, himoya, energetik va boshqa vazifalarni bajaradi. Shu sababli, kunlik oziq-ovqat tarkibidagi oqsil miqdori me'yorida bo'lishi kerak. Qabul qilinayotgan ovqat tarkibidagi oqsilning miqdori va sifati o'zgarishi natijasida organizm to'qima va hujayralarida ro'y beradigan kompensator moslashuv o'zgarishlari tibbiyotning yetakchi muommolaridan biri hisoblanib, noratsional oqsilli ovqatlanishda a'zo va to'qimalardagi struktur funksional o'zgarish holatlari o'rganib kelingan.

Tadqiqod maqsadi: Noratsional ovqatlanishda jigarda sodir bo'ladigan gistopatologik o'zgarishlarni o'rganish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq qilish.

Material va uslublar : Noratsional oqsilli ovqatlanishda jigarni gistostrukturaviy o'zgarishlarni tadqiq etish maqsadida bir oygacha davomiylikda tajribalar o'tkazildi. Tajribalar umumiy tana vazni 150- 160 grammli, 30 dona jinsiy jihatdan yetuk, erkak, oq kalamushlarda 30 kun mobaynida olib borildi.Tajriba davomida laboratoriya hayvonlariga faqat qaynatilgan tuxum oqsili va suv berib borildi.

Bir oy davomida hayvonlarni muntazam ravishda tashqi ko'rinishi, yunglarining rangi va holati, ishtahasi, shovqin va yorug'likka ta'sirchanligi va boshqa umumiy holatlari kuzatilib, qayd etib borildi. Hayvonlarning har kunlik iste'mol qilgan ozig'i miqdori va umumiy tana vaznini tajriba yakunigacha har kuni muntazam ravishda o'lchandi.

Oq kalamushlarning tashqi ko'rinishi tajribaning yettinchi kunigacha yunglari tozalanib tiniqlashib bordi, so'ngra sekin asta nursizlanib, xiralashib, siyraklasha boshladi. Tajriba yakuniga kelib yunglari xira, nozik va siyrak holatga keldi. Bu hayvonlarning tashqi ta'sirlarga sezgirligi (ayniqsa shovqinga) tajribaning yettinchi-sakkizinchi kunidan boshlab orta boshladi, tajriba yakuniga kelib har qanday ta'sirga ham ortiqcha ta'sirchan bo'lib qoldi. Bu guruh hayvonlarining ishtahasi o'zgaruvchan holatda bo'lib, tajribaning oltinchi sutkasida eng yuqori, o'n birinchi sutkasida eng past darajaga tushib ketdi.

Tajribaning 30-sutkasidagi hamda tajribaga olinmagan sog'lom oq kalamushlardan gistologik preparatlar tayyorlandi. Preparatlar gematoksilin-eozin bilan bo'yalib, mikroskopda ko'rildi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Natijalar: Tajribaga olinmagan sog'lom oq kalamushlar jigari makroskopik tekshirilganda: jigarning bo'yi 4-4.5sm, eni 3-3.5sm, yuzasi tekis, qirralari aniq bilinadi, konsistensiyasi bir xilda. Ulardan tayyorlangan gistologik mikropreparatlarida:jigar bo'lakchalari chegaralari noaniq, bo'lakchalar o'zaro qo'shilib ketgan. Chunki bo'lakchalar atrofidagi biriktiruvchi to'qima juda sust rivojlangan. Bo'lakchalar markazida markaziy venalar deyarli bir xil tuzilishga ega, o'zgarishsiz . Jigar triadalari o'zgarishsiz, odatiy pozitsiyasida. Gepatotsitlar o'zgarmagan, yadro ham sitoplazmada bir xil tekislikda joylashgan. Jigar bo'lakchasi diametri 502±1mkm, markaziy vena diametri 26±0.5mkm, jigar plastinkasi o'lchami 258±0.6mkm, gepatotsit eni 9±0.7mkm, gepatotsit bo'yi 10±0.6mkm, yadro diametri 5±0mkm, kapilyar diametri 2.5±0.1 ni tashkil etdi.

Oqsilli oziqlanishning 30-sutkasida olingan jigarning makroskopiyasida: bo'yi 6-6.5sm, eni 5-5.5sm, qirralari o'tmaslashgan, yuzasidagi tekislik biroz yo'qolgan.Gistologik mikropreparatining mikroskopiyasida quyidagilar ko'rindi: markaziy venada kengayish aniqlanyapti, jigar plastinkalari o'lchami uzaygan, gepatotsitlar va yadro hajmi kattalashgan. Markaziy venada to'laqonlilik. Sinusoid kapilyarlar kengaygani ko'rinyapti. Jigar triadalari xam kattalashgan.Gepatotsitlar sitoplazmasi oksifil, yadro bazofil. Oqsilli oziqlanishning 30-sutkasidagi oq kalamushlar jigari gistostrukturasida: jigar bo'lakchasi diametri 766±1mkm, markaziy vena diametri 114±1mkm, jigar plastinkasi o'lchami 375±1mkm, gepatotsit eni 18.5±0.5mkm, gepatotsit bo'yi 18.5±0.5 mkm, yadro diametri 12±0.2 mkm, kapilyar diametri 14.5±0.4mkm ni tashkil etdi.

Xulosa: 1.Oq kalamushlar jigari anatomiyasining o'ziga xosligi shundan iboratki, organ to'rt bo'lakdan iborat bo'lib, o't pufagi bo'lmaydi.

2.Tajriba hayvonlarining tana vazni tajribaning dastlabki kunlari ortib bordi. So'ngra tajribaning 30-sutkasigacha qadar kamayib borishi kuzatildi.

3.Oq kalamushlar ustida o'tkazilgan tajribalarda jigar to'qimasining gistologik tekshiruvida olingan morfometrik natijalarni sog'lom va tajriba kalamushlar o'rtasida taqqoslanganda, gistologik o'zgarishlar aniqlandi. Tajribaning har bir bosqichida jigarning makro va mikrostrukturasidagi o'zgarishlar to'qima tuzilishini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarining: markaziy vena, jigar plastinkasi, sinusoid kapilyarlar, jigar triadalari, gepatotsit va uning yadrolarining hajmini ortganligi bilan iborat bo'ldi.

WORDLY KNOWLEDGE